ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 574 sahifa,
25-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Academic and Translingual Competence as an Integrative Construct in Higher Education: a Theoretical Framework 10
Davronova Fotima Pirnazarovna

Ovqatlanish xulq-atvori buzilgan bemorlarning emotsional va shaxslilik xususiyatlarining klinik-psixologik tahlili 14
Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizim modeli 18
Melliyeva Dilfuza O'ralovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5K kompetensiyalarini baholash mezonlari va indikatorlari 24
Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna, Qodirov Zayniddin Zaripovich

Bo'lajak pedagoglarda stressli vaziyatlarda xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari 29
Olimova Firuza Aslonovna

Developing the Skill of Evaluating the Reliability of Information Sources in Teaching English 35
Sherimbetova Nasiba Ravshanbek kizi

Tarmoq texnologiyalari fanida sun'iy intellekt asosidagi web-platformaning didaktik imkoniyatlari 42
Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda sun'iy intellekt imkoniyatlari 48
Abdujabborova Dildora Saidmurot qizi

Pedagogik jarayonlar davomida talaba-yoshlar egallagan faol fuqarolikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati 56
Xabibulla Muratov Abduqodirovich

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda atrof muhitga munosabatini shakllantirishning zamonaviy usullari 65
Umarova Dildora Nizom qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli va bog'lanishli nutqini rivojlantirish hamda nutqiy qiyinchiliklarni erta aniqlashning pedagogik-psixologik asoslari 70
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida ochiq javobli PISA topshiriqlarining produktiv fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni 76
Xudayberdiyeva Muxayyo Karshiboyevna

Ta'limda interaktiv texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 86
Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi

Yosh kelin-kuyovlarning nikoh orqali kutuvlari va psixologik farovonligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 91
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

"Art-pedagogik qobiliyat" tushunchasining mohiyati va tarkibiy komponentlari 95
Bo'ltakova Roziya Xasan qizi

Pathogenetic Rationale for Personalized Therapy of Dentin Hypersensitivity in Patients With Erosive Tooth Lesions 99
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Zoirov Tulqin Elnazarovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona axborot tizimlarini tizimli tahlil qilish va modellashtirish 104
Ro'ziyev Bahromjon Rustam o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish mexanizmi va tarkibiy-funksional modeli 108
Berdimurotov Adxam Xayrulla o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari 113
Umirova Marxabo Abdimannobovna

O'zbek EFL sinflarida talabalarning og'zaki nutq ravonligini mikrointeraktiv sikllar asosida rivojlantirish..... 116
X. S. Malikova

Sun'iy intellektning xorijiy til o'rganuvchilarga yordami: imkoniyatlar va amaliy mashg'ulotlar 120
Ashurova Dildora G'afurovna

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasi va aralash ta'lim sharoitidagi talablari..... 124
Baxtiyorova Maxliyo Baxrom qizi

Refleksiv texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tafakkurini rivojlantirish 127
Xo'janiyozova Gulhayo Ilhomovna

Boshlang'ich ta'limda hikoya janridagi matnlarni o'qitishda STREAM texnologiyasidan foydalanish..... 131
Ahmedova Munisa Xo'sinboy qizi

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlashning korreksion-pedagogik texnologiyasi 137
Jo'rayeva Gulmiraxon Zufarjon qizi

Developing EFL Students' Academic Writing Skills Through Self-Directed Learning Strategies..... 141
Kayumova Gulnoz Abduxalilovna

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi 147
Mavlonova Shaxzoda Turg'unovna

Developing English Communication Skills Among Students in Non-Philological Higher Education Institutions Through Task-Based Learning 151
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna

Indicators for Evaluating and Monitoring the Quality of Foreign Language Education in General Secondary Schools 158
Muxtarova Shafoatbonu Adham qizi

Fizika fanini o'qitishda talabalarning texnologik kompetensiyasi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida... 164
Raxmankulova Dilora Gulomovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi asosida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni 169
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish 175
Uzokov Sherzod Xamidovich

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar: imkoniyatlar va istiqbollar..... 180
Akramhonova Maftunaxon Ma'murjon qizi

Mystical Images in the Poetry of Navoi and Mashrab 183
Mamasoliyeva Muslimaxon Alisher qizi

Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: tajriba-sinov natijalarining tahlili..... 188
Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish 193
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Abdullayeva Qirmizi Jumatayevna

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 198
Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna

Generative Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Pedagogical Challenges and the Development of Communicative Competence 202
Latofat Zokir kizi Raximdjanova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Международные модели подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию: сравнительный анализ ключевых компонентов 210
Янкина Эмиля Адыловна

Психологические механизмы формирования читательской мотивации у младших школьников 216
Мадаминова Самидабону Умидбековна

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi destruktiv ziddiyatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik vositalari 222
Elbekova E'zoza Jamshid qizi

Badiiy asarni neyropedagogik tahlil materiali sifatida qo'llashning metodik asoslari 227
Shoyimova Shoira Sanakulovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi 231
Toshturdiyeva Tursunoy Muhammadiyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari 235
Toshtemirova Maftuna Karimovna

Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik farovonligini oshirish: psixodiagnostik va psixokorreksion yondashuvlar 240
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

Raqamli ta'lim muhitida flipped classroom texnologiyasidan foydalanish 244
Azimova Dilnoza Axmedjonovna

Инкультурация личности и формирование культурной идентичности в школьном образовании 249
Насимджанова Махсума Мажидовна

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarga ingliz tilini integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish 253
Ayatov Raximberdi Ibragimovich

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi 259
Ochilova Gavhar Hamid qizi

Digital Technologies and Artificial Intelligence in English Language Teaching: Pedagogical Opportunities and Challenges 267
Xolliyeva Mashxura Erkinjonovna

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u ijrochiligi kreativligini rivojlantirishda fortepiano fanining didaktik imkoniyatlari 270
Normuminova Gulmira Komiljonovna

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini kengaytirish 280
Xudoynazarova Moxira Xakimovna

Pedagogika yo'nalishi talabalarining sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari 284
Ermatov Sh. L.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 289
Nuriddinova Marjona Erkinovna

Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati 293
Radjapova Zuxra Tirkashevna

O'qib tushunish strategiyalari va xalqaro tajriba 297
Barno Boltayeva

Maktab direktorlarining mehnatga oid hujjatlarni rasmiylashtirishda qonunchilik normalarini qo'llash amaliyoti 301
Rejapova Dilafruz Akramovna

Kurashni olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish istiqbollari: institutsional va sport-siyosiy tahlil 308
Hosilbek Mengliboyev Marat o'g'li

Badiiy ta'limda talabalarning milliy-madaniy identifikatsiyasini rivojlantirishda an'anaviy naqqoshlik maktablari tarixini o'qitish metodikasi 314
Baxriddinova Sayyora Jumanazar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxmat ta'limining pedagogik shart-sharoitlari 318
Boboqulov Chori Urolovich

Sog'lom ovqatlanish va inson salomatligi 326
Begimkulov Oltiboy Jo'rayevich, Shoimova Nargiza Omonqul qizi

Raqamli ijtimoiy muhitda o'smirlarning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirishda milliy tarbiya, sun'iy intellekt va media makonining pedagogik imkoniyatlari 333
Gulyamova Aziza Otabek qizi

Organising Experimental Work on Multimodal Reading Literacy in Primary School: Design, Stages and Assessment Criteria 337
Suvanova Nilufar Akbarovna

Цифровые коллекции и рукописные базы в современном английском востоковедении: новые возможности исследования источников 341
Олимова Дилафруз Олимжон кизи

New Approaches to Assessing Students' Independent Work In The Era of Generative AI 347
Sardora Shakirova To'lanovna

Developing Writing Skills of Non-Philological Students Through Online Learning Platforms 353
Rajabova Rakhimakhon Maksudovna

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida robototexnikani o'qitish jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-metodik jihatlari 358
Axunbetova Zuxra Nailevna

Ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 363
Kilichov Akobir Kodirovich

Ta'lim sifatini samarali boshqarishda pedagogik va matematik metodlar integratsiyasi menejmentning asosi sifatida 371
Axmedov Azizbek Karim o'g'li, Soliyeva Feruza Qahramonovna, Axmedova Madina Nodirbek qizi

Oliy ta'limning globallashuvi va xalqarolashuvi jarayonlarining xususiyatlari 375
Vorobyov K. A.

Talabalarda sotsiolingvistik tafakkurni rivojlantirish metodlari 379
Otaqulov Alisher Safaraliyevich

Maktabgacha yosh guruhlarida geometrik figuralarni o'rgatish orqali boshlang'ich matematik tasavvurlarini shakllantirish 383
Vaxabova Gulshan Vafaqul qizi

Yodlangan sinf nutqidan real hayotiy muloqotga: boshlang'ich efl ta'limida vaziyatli kommunikativ topshiriqlarning o'rni 388
Tuxtayeva Zarina Faxriddinovna

Akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini mantiqiy va nostandart topshiriqlar asosida takomillashtirish 393
Xoshimova Sevara Sheraliyevna

Mobil ta'lim tushunchasi va uning mohiyati 398
Rustamova Nodira Rustam qizi

AI-Based Adaptation of Graded Texts 402
Ermatova Sarvinoz

Intellektual rivojlanishida cheklovlari bo'lgan o'quvchilar bilan individual ishlashning pedagogik yondashuvlari 406
To'xtamatova Maftuna Ismonjonovna

Umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar soha terminlarini o'qitishning metodik asoslari 412
Axmedova Shahnozaxon Farxod qizi

Sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash 416
Janbayeva Marjan Smatillayevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Burhoniddin Zarnujiy qarashlarining axloqiy, ma'naviy va shaxsiy kamolotga oid asosiy g'oyalari 420
Abduhalimova Nigora Turdali qizi

Tirik organizmlarning muhitga moslashishi: adaptatsiyaning biologik asoslari va amaliy o'rganish metodikasi 424
Ashurova Muqaddas Muxiddinovna

Chet tilini o'qitishda leksik kompetensiyani shakllantirish tamoyillari 429
Mirzakamolova Maftuna Raximjon qizi

Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar 433
To'xtaboyeva Yulduzxon Abdusattorovna, Kodirova Husnida Maxsutali qizi

O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 438
Mexriniso Nosirova

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sharoitida steam yondashuvidan foydalanish metodik kompetentligini rivojlantirish 445
Abidjanova Vasila To'lkinovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivini rivojlantirishda mental arifmetikaning ahamiyati 454
Ozodova Bonu Zafar qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda gender madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 459
Mardanova Maftuna Asatullo qizi

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari 463
Ataboyeva Muxlisa Azimjon qizi

The Impact of Boxing on Physical and Mental Development 472
Shuhrat Dilmuradov

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik baholash va psixologik tashxis: farqlanishi va tarbiyachi kasbiy vakolatining chegaralari 476
Zaynutdinova Dilobar Nuritdinovna

Integrativ o'qitishda o'quv dasturlari mazmunini muvofiqlashtirishning didaktik mezonlari va ko'rsatkichlari 483
Maqsudova Nodira Alijonovna

Fransuz va o'zbek tillarida gastronomik terminlarning qiyosiy-konseptual tahlili 489
Halimova Mahbuba To'raqulovna

Развитие математически по STEAM технологиям 496
Садикова Д. Х.

Talabalarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli va uning samaradorligi 500
Allamuratov G'ofur Ashurovich

O'quvchilarda aqliy mehnat kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari 505
Eshmonov Moxirjon Baxtiyor o'g'li

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish 509
Jabborova Ro'za O'rinbayevna

Mustaqillik yillarida olima ayollarning ilmiy faoliyati va ta'limda xotin-qizlarning o'rni 515
To'ymurodova Gullola Normurod qizi

Milliy atlas va adras matolarining rang barqarorligi va ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish texnologiyasini takomillashtirish 519
Xatamova Aziza Ochildiyevna

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishda maxsus pedagog faoliyati 523
Hurriyat Yoqubova

Sun'iy intellekt vositalari asosida filolog talabalarning ingliz va malay tillaridagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 527
Yuldashev Azim Abdurahmonovich

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish: sinf muloqotini tashkil etish va nutqiy faollikni rivojlantirish yo'llari 533
Shukurova Dilbar Shukrullo qizi

Sportchilarda jarohat xavfini sun'iy intellekt va taqiladigan sensorlar asosida prognozlash 538
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Sport bilan bog'liq miya chayqalishidan keyin sportga qaytish qarorini individuallashtirish 543
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Kasbiy ta'lim rahbarlarining menejerlik kompetentligini baholashda dalillarga asoslangan diagnostika va guruhiy natijalar talqini 549
Abduraxmonova Nigora Kalandarovna

Dual ta'limning nazariy-metodologik asoslari va bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashdagi imkoniyatlari 554
Oybekova Shukrona Oybek qizi

Inklyuziv ta'limda nutq buzilishlariga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashning hamkorlikka asoslangan pedagogik modeli 558
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarida deontologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari 561
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutqida kollokatsion ko'nikmalarni korpus asosidagi topshiriqlar yordamida rivojlantirish 565
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga yozma nutqni o'qitishda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari va cheklovlari 568
D. X. Saydazimova

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIGA YOZMA NUTQNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI

D. X. Saydazimova
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga yozma nutqni o'qitishda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi. "Imkoniyat" (affordance) tushunchasi, kompyuter yordamida til o'rgatish materiallarini baholash mezonlari, TPACK modeli va raqamli savodxonlik konsepsiyalari tahlilning nazariy asosi sifatida yoritiladi.

Raqamli vositalar yozish jarayonining rejalashtirish, qoralama yozish, tahrir va fikr-mulohaza, nashr va muloqot hamda refleksiya bosqichlari bo'yicha tasniflanib, har bir bosqichdagi didaktik imkoniyatlar va xavflar ko'rsatib beriladi. Avtomatlashtirilgan yozuv baholash tizimlari va generativ sun'iy intellekt vositalarining cheklovlari alohida tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalardan didaktik asoslangan foydalanish tamoyillari va bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli yozuv vositalarini baholash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, yozma nutq, didaktik imkoniyat, cheklov, avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza, hamkorlikda yozish, generativ sun'iy intellekt, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi.

Abstract: The article analyzes the didactic affordances and limitations of digital technologies in teaching writing to prospective English language teachers. The concept of affordance, criteria for evaluating computer-assisted language learning materials, the TPACK model and the concept of digital literacies are discussed as the theoretical basis of the analysis.

Digital tools are classified according to the stages of the writing process - planning, drafting, revising and feedback, publishing and communication, and reflection - and the affordances and risks associated with each stage are identified. The limitations of automated writing evaluation systems and generative artificial intelligence tools are examined separately. The article proposes principles for the didactically grounded use of digital technologies and criteria for prospective teachers to evaluate digital writing tools.

Key words: digital technologies, writing, didactic affordance, limitation, automated feedback, collaborative writing, generative artificial intelligence, prospective English language teacher.

Аннотация: В статье анализируются дидактические возможности и ограничения цифровых технологий в обучении письменной речи будущих учителей английского языка. В качестве теоретической основы анализа рассматриваются понятие "аффорданс", критерии оценки материалов компьютерного обучения языку, модель TPACK и концепция цифровой грамотности.

Цифровые средства классифицируются по этапам процесса письма - планирование, написание черновика, редактирование и обратная связь, публикация и коммуникация, рефлексия, - для каждого этапа выявляются дидактические возможности и риски. Отдельно анализируются ограничения систем автоматизированной оценки письма и инструментов генеративного искусственного интеллекта. Предлагаются принципы дидактически обоснованного использования цифровых технологий и критерии оценки цифровых средств обучения письму будущими учителями.

Ключевые слова: цифровые технологии, письменная речь, дидактическая возможность, ограничение, автоматизированная обратная связь, совместное письмо, генеративный искусственный интеллект, будущий учитель английского языка.

KIRISH

Bugungi kunda yozma muloqotning katta qismi raqamli muhitda kechadi: elektron xatlar, onlayn forumlar, ta'lim platformalaridagi topshiriqlar, hamkorlikda tahrirlanadigan hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar yozuvning odatiy shakllariga aylandi. Shu bilan birga, matn muharrirlari, imlo va grammatika tekshiruvchilari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va generativ sun'iy intellekt vositalari yozish jarayonining o'zini tubdan o'zgartirmoqda.

Bu holat bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga ikki tomonlama talab qo'yadi. Bir tomondan, talabalar raqamli vositalardan o'z yozma nutqini rivojlantirish uchun samarali foydalana olishi, ikkinchi tomondan esa kelajakda ularni o'quvchilarga yozuvni o'rgatishda didaktik jihatdan asosli qo'llay olishi lozim.

Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotimizda raqamli vositalarning samaradorligi ularning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki pedagogik maqsadga muvofiq qo'llanishi bilan belgilanishi ko'rsatilgan edi [1]. Biroq amaliyotda raqamli vositalar ko'pincha ularning cheklovlari tahlil qilinmasdan, "zamonaviylik belgisi" sifatida joriy etilmoqda.

Tadqiqot obyekti bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga yozma nutqni o'qitish jarayoni, predmeti esa ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari va cheklovlaridir.

Tadqiqot vazifalari raqamli texnologiyalarning ta'limdagi imkoniyatlari bo'yicha ilmiy qarashlarni tahlil qilish, raqamli vositalarni yozish jarayoni bosqichlari bo'yicha tasniflash, ularning imkoniyat va cheklovlarini aniqlash hamda didaktik asoslangan foydalanish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Imkoniyat" (affordance) tushunchasi J. Gibson tomonidan muhitning organizmga taqdim etadigan harakat imkoniyatlarini ifodalash uchun kiritilgan [2]. Ta'lim texnologiyalari sohasida bu tushuncha vositaning o'zida "yashiringan" xususiyat emas, balki vosita, foydalanuvchi va faoliyat maqsadi o'rtasidagi munosabat sifatida talqin etiladi. Demak, bir xil raqamli vosita bir topshiriqda yozuvni rivojlantirsa, boshqasida aksincha, o'quvchining mustaqil fikrlashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

C. Chapelle kompyuter yordamida til o'rgatish materiallarini baholash uchun til o'rganish salohiyati, o'rganuvchiga mosligi, ma'noga yo'naltirilganlik, autentiklik, ijobiy ta'sir va amaliy qulaylik mezonlarini taklif etgan [3]. Ushbu mezonlar raqamli yozuv vositalarini tanlashda ham qo'llanishi mumkin, chunki ular texnologiyani til o'rganish maqsadlariga bo'ysundirishni talab qiladi.

P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli o'qituvchining texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda egallashi zarurligini asoslaydi [4]. Bu modelga ko'ra, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi raqamli vositani bilishi bilan cheklanmasdan, uning yozuvni o'qitishning muayyan maqsadi uchun qanday hissa qo'shishini anglashi kerak.

G. Dudeney, N. Hockly va M. Pegrum esa raqamli savodxonlikni til, axborot, aloqa va (qayta) loyihalash bilan bog'liq savodxonliklar majmui sifatida tavsiflab, bu ko'nikmalarni til ta'limi bilan uyg'un holda rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi [5].

Raqamli muhitda hamkorlikda yozish bo'yicha tadqiqotlar uning muhim imkoniyatlarini ko'rsatadi. N. Storch ikkinchi tilda hamkorlikda yozish tadqiqotlarini sharhlab, bunday faoliyat jarayonida o'rganuvchilar til shakllari haqida muhokama yuritishi, bilimlarini birlashtirishi va matnning aniqligiga ko'proq e'tibor qaratishini qayd etadi [6]. Onlayn hujjatlar va vikilar bunday hamkorlikni dars vaqtidan tashqarida ham davom ettirish imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza vositalarining samaradorligi esa ziddiyatli baholanmoqda.

M. Warschauer va D. Grimes maktablarda avtomatlashtirilgan yozuv baholash tizimlaridan foydalanishni o'rganib, ular o'quvchilarni matnni qayta ko'rib chiqishga undashini, biroq qayta ishlashlar asosan yuzaki tuzatishlar bilan cheklanishini ko'rsatgan [7].

M. Stevenson va A. Phakiti kompyuter tomonidan berilgan fikr-mulohazaning yozuv sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilib, uning ijobiy ta'siri haqidagi dalillar cheklangan ekanligini va yozuv sifatining umumiy o'sishiga o'tishi yetarli isbotlanmaganini xulosa qilgan [8].

Generativ sun'iy intellekt vositalari yozuv ta'limiga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham olib kirdi. J. Barrot ChatGPT ning ikkinchi tilda yozuvni o'qitishdagi salohiyatini - g'oya yaratish, namunaviy matn va tezkor fikr-mulohaza berish - e'tirof etgan holda, akademik halollik, mualliflik ovozining yo'qolishi, noto'g'ri ma'lumot va o'rganuvchining vositaga haddan tashqari bog'lanib qolishi kabi xavflarni ko'rsatadi [9].

UNESCOning generativ sun'iy intellekt bo'yicha tavsiyalarida esa bu vositalarni inson markazli, yoshga mos va pedagogik jihatdan asoslangan holda qo'llash zarurligi ta'kidlangan [10].

Inklyuziv ta'lim nuqtayi nazaridan C. MacArthur matn muharrirlari, imlo tekshiruvi, so'z bashorati va nutqni tanib olish vositalari yozishda qiynaladigan o'quvchilar uchun transkripsiya yukini kamaytirishini, ammo ularning samaradorligi ushbu vositalardan foydalanishga o'rgatishga bog'liqligini ko'rsatadi [11].

UNESCOning 2023-yilgi Global ta'lim monitoringi hisobotida esa texnologiyalarning ta'limga ta'siri haqidagi ishonchli dalillar cheklangani va texnologiyalar pedagogik maqsadga xizmat qilgandagina foydali bo'lishi qayd etilgan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tasniflash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Raqamli vositalarni tasniflashda yozish jarayonining bosqichlari asos qilib olindi, chunki bu yondashuv vositani alohida emas, balki yozuvchi faoliyatining muayyan qismi bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi.

Ushbu maqolada eksperimental statistik ma'lumotlar taqdim etilmaydi. "Tahlil va natijalar" bo'limidagi natija adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan tasnif, imkoniyat va cheklovlar tahlili hamda didaktik tamoyillardan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida raqamli vositalar yozish jarayonining besh bosqichi bo'yicha tasniflandi va har bir bosqichdagi didaktik imkoniyatlar hamda cheklovlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: **Yozish jarayoni bosqichlarida raqamli vositalarning imkoniyat va cheklovlari**

Bosqich	Raqamli vosita turi	Didaktik imkoniyat	Cheklov va xavf
1. Rejalashtirish	aqliy xarita va grafik organayzer dasturlari, onlayn "aqliy hujum" doskalari, generativ SI	g'oyalarni vizual tartiblash, guruh bilan birgalikda g'oya yig'ish	tayyor g'oyalarni qabul qilish, mustaqil fikrlashning susayishi
2. Qoralama yozish	matn muharrirlari, nutqni matnga aylantirish, so'z bashorati	matnni oson o'zgartirish, transkripsiya yukini kamaytirish	chalg'ituvchi omillar, qo'lda yozish ko'nikmasining zaiflashishi
3. Tahrir va fikr-mulohaza	imlo va grammatika tekshiruvchilari, avtomatlashtirilgan baholash, onlayn hujjatdagi izohlar	tezkor fikr-mulohaza, tengdoshlar tahririni tashkil etish	yuzaki tuzatishlarga e'tibor, vosita xatolari, tuzatishni tushunmasdan qabul qilish
4. Nashr va muloqot	bloglar, onlayn doskalar, forumlar, elektron pochta	real auditoriya, kommunikativ maqsad, motivatsiya	shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, xatolardan xijolat bo'lish
5. Refleksiya	elektron portfolio, versiyalar tarixi, onlayn kundalik	matn rivojini kuzatish, o'z-o'zini baholash	refleksiyaning rasmiyatchilikka aylanishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir imkoniyat o'ziga mos xavfni ham o'z ichiga oladi. Masalan, transkripsiya yukini kamaytiruvchi vositalar yozishda qiynaladigan o'quvchilarga mazmunga e'tibor qaratish imkonini beradi, biroq ulardan nazoratsiz foydalanish imlo ko'nikmasining shakllanishini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli raqamli vositaning qiymati uning o'zida emas, balki qaysi o'quvchi, qaysi maqsad va qaysi bosqichda qo'llanishida namoyon bo'ladi.

Tahlil raqamli texnologiyalarning yozuv ta'limidagi cheklovlarini besh guruhga ajratish imkonini berdi:

- kognitiv cheklovlar - vosita o'quvchi bajarishi kerak bo'lgan fikrlash ishini o'z zimmasiga olganda, o'rganish samaradorligi pasayadi;
- lingvistik cheklovlar - avtomatlashtirilgan vositalar asosan grammatika va imlo kabi yuzaki jihatlarga e'tibor qaratadi, matnning mantiqiy tuzilishi va kommunikativ maqsadga muvofiqligini yetarli baholay olmaydi [7; 8];
- etik cheklovlar - generativ sun'iy intellekt vositalari mualliflik va akademik halollik masalalarini keskinlashtiradi [9];
- ijtimoiy-texnik cheklovlar - qurilmalar va internetdan teng foydalanish imkoniyatining yo'qligi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi muammolari;
- pedagogik cheklovlar - o'qituvchining raqamli vositani yozuvni o'qitish maqsadi bilan bog'lay olmasligi, natijada texnologiyadan foydalanish o'z-o'zidan maqsadga aylanishi.

Aniqlangan imkoniyat va cheklovlar asosida raqamli texnologiyalardan yozma nutqni o‘qitishda didaktik asoslangan foydalanishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

- pedagogik maqsad ustuvorligi - vosita tanlash topshiriq maqsadidan kelib chiqadi, aksincha emas;
- jarayonga yo‘naltirilganlik - raqamli vosita yozish jarayonining aniq bosqichiga biriktiriladi;
- tanqidiy foydalanish - o‘quvchi vosita taklifini qabul qilishdan oldin uni tahlil qiladi va asoslaydi;
- shaffoflik va akademik halollik - vositadan qanday foydalanilgani yozma ishda ko‘rsatiladi;
- foydalanish imkoniyati - inklyuziv guruhda assistiv funksiyalar o‘quvchi ehtiyojiga ko‘ra taqdim etiladi;
- mustaqillikka bosqichma-bosqich o‘tish - vositaga tayanish o‘quvchi ko‘nikmalari shakllangani sari kamaytiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli vositalarni ongli tanlashini ta’minlash uchun C. Chapelle mezonlari [3] yozuvni o‘qitish kontekstiga moslashtirildi (2-jadval). Ushbu mezonlar talabalarga metodika mashg‘ulotlarida turli raqamli vositalarni qiyosiy baholash topshirig‘i sifatida berilishi mumkin.

2-jadval: **Raqamli yozuv vositalarini baholash mezonlari**

Mezon	Asosiy savol
Yozuvni rivojlantirish salohiyati	Vosita o‘quvchining yozish ko‘nikmasini rivojlantiradimi yoki uning o‘rniga ishlaydimi?
O‘quvchiga mosligi	Vosita o‘quvchilarning til darajasi, yoshi va ta’lim ehtiyojlariga mos keladimi?
Ma’noga yo‘naltirilganlik	Vosita faqat shaklga emas, mazmun va tuzilmaga ham e’tibor qaratishga yordam beradimi?
Autentiklik	Vosita real kommunikativ vaziyat va auditoriyani yaratadimi?
Foydalanish imkoniyati	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar undan foydalana oladimi?
Etik va xavfsizlik jihatlari	Shaxsiy ma’lumotlar himoyalanganmi, akademik halollik ta’minlanadimi?
Amaliy qulaylik	Vosita dars sharoiti va mavjud texnik imkoniyatlarda qo‘llanishi mumkinmi?

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar yozma nutqni o‘qitishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega: ular g‘oyalarni tartiblash, matnni qayta ishlash, hamkorlikda yozish, tezkor fikr-mulohaza olish, real auditoriya bilan muloqot qilish va yozishda qiynaladigan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili avtomatlashtirilgan va generativ vositalarning kognitiv, lingvistik, etik, ijtimoiy-texnik va pedagogik cheklovlarini ham ko‘rsatdi [7-12].

Maqolada raqamli vositalar yozish jarayoni bosqichlari bo‘yicha tasniflandi, har bir bosqichdagi imkoniyat va xavflar aniqlandi, didaktik asoslangan foydalanishning olti tamoyili va raqamli yozuv vositalarini baholashning yetti mezoni taklif etildi.

Amaliyot uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- chet tili o‘qitish metodikasi fanlarida raqamli yozuv vositalarini qiyosiy baholash bo‘yicha amaliy topshiriqlar berish;
- talabalarning o‘z yozma ishlarida raqamli vositalardan foydalanish jarayonini shaffof qayd etishini talab qilish;
- avtomatlashtirilgan fikr-mulohazani o‘qituvchi va tengdosh fikr-mulohazasi bilan uyg‘unlashtirish;
- inklyuziv guruhlar uchun assistiv funksiyalardan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Kelgusida raqamli texnologiyalarning bo‘lajak o‘qituvchilar yozma nutq kompetensiyasiga ta’sirini tajriba-sinov orqali o‘rganish hamda inklyuziv ta’lim sharoitida raqamli vositalarga asoslangan yozuvni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydazimova, D. X. (2025). Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi [Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi]. Toshkent. - 74-bet.
2. Gibson, J. J. (1979). The Ecological Approach to Visual Perception. Boston: Houghton Mifflin.
3. Chapelle, C. A. (2001). Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
5. Dudeney, G., Hockly, N., & Pegrum, M. (2013). Digital Literacies. Harlow: Pearson.
6. Storch, N. (2011). Collaborative writing in L2 contexts: Processes, outcomes, and future directions. Annual Review of Applied Linguistics, 31, 275-288.
7. Warschauer, M., & Grimes, D. (2008). Automated writing assessment in the classroom. Pedagogies: An International Journal, 3(1), 22-36.
8. Stevenson, M., & Phakiti, A. (2014). The effects of computer-generated feedback on the quality of writing. Assessing Writing, 19, 51-65.
9. Barrot, J. S. (2023). Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and potentials. Assessing Writing, 57, 100745. https://doi.org/10.1016/j.asw.2023.100745
10. Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.
11. MacArthur, C. A. (2009). Reflections on research on writing and technology for struggling writers. Learning Disabilities Research & Practice, 24(2), 93-103.
12. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education – A tool on whose terms? Paris: UNESCO.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.